



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th June, 2025

FARZAND TARBIYASIDA TO'G'RI KO'RINGAN XATOLAR

Shrabitinova Nigora Zokir qizi

Anotatsiya:

Ushbu maqolada bola tarbiyasida ota va onalar to'g'ri deb o'ylagan xatolar xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Bolalarga doim ham tanbeh berib emas balki namuna sifatida o'zimiz ularga o'rnak bo'lishumiz kerakligi haqida yorib berilgan. Ota va ona bolalarga eng yaqin va hayot ustozи ekanligi yaqol ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Ota ona Bolani itoatkor qilib tarbiyalashi, tarbiyada bolaga nisbatan nohaqlik, o'ziga va o'zgalarga bo'lgan hurmati, ota onaning bola oldida bir biriga o'zaro hurmati.

Kirish qism

Farzand tarbiyasi har bir jamiyatning rivojlanishida hal qiluvchi o'rinnegallaydi. Sog'lom, bilimli va barkamol avlodni voyaga yetkazish oilaning, ayniqsa ota onaning asosiy vazifasidir. Ammo bugungi kunda ota onalar farzand tarbiyasida har hil yondashuvlarni qo'llamoqda. Bu yondashuvlar esa hayotiy tajribaga asoslangan holda amalga oshiriladi, natijada bir qator juda katta xatolarga yo'l qo'yiladi. Ota onaning bolaga bo'lgan munosabati, bergen e'tibori, qo'llagan uslubi bularning barchasi farzandning kelajagida shaxs sifatida shakillanishida muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu maqolada keng tarqalgan xatoliklarni tahlil qilinadi, ularning salbiy oqibatlari va sog'lom tarbiya usullarining muhimligi haqida fikr yuritiladi.

Asosiy qism

Ota onalar oldida bolani to'g'ri tarbiyalash kabi ma'sulyatli vazifa turibdi. Afsuski ko'pkina ota onalar bu vazifani bajarishda ko'pgina xatolarga yo'l qo'yishadi. Ota onalar farzand tarbiyasida bolani itoatkor bo'lishga undashadi. Bu hilatda ota ona farzandini odob axloqli bo'lib o'sadi deb o'ylaydi. Aksincha bu xato ekanligini tushinishmaydi. Itoatkor bo'lib o'sgan bola o'z fikrini emas boshqalarning aytganini qiladigan bamisol robot kabi ulg'ayishi mumkin. Bunday bolalarda kelajakda o'z o'rnini topishda ko'plab to'siqlarga duch keladi. Hayotda o'z o'rnini topishda



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th June, 2025

qiynaladi. Bolani itoatkor qilib emas balki mustaqil fikrlaydigan, masulyatni his qiladigan manan yetuk qilib tarbiyalash zarur. Bunday qilib tarbiyalashi uchun esa unga ota onaning o'zi o'rnak bo'ladi. Sababi bola eshtganini emas balki ko'rganini qiladi. Ota va onaning bir biriga bo'lgan hurmati, uy ishlarida bir biriga ko'maklashganini mehr muhabbatini ko'rib o'sgan bola ham ulardan o'rnak oladi. Bolada yoshligidan biror uy ishlarida yordam berishi, yoki shunga o'xshash yengil ishlarni bajarishini tushintirib borilsa bola bu uning vazifasi ekanligini anglab yetadi. Agarda katta bo'lgach eplaydi desak bu holat o'g'il bolaning kelajagi uchun katta ta'sir qiladi. Sababi u kelajakda bir oilaning ustuni bo'lishi kerak. To'g'ri ko'ringan xatolardan yana biri bu bolaga taxdid qilish. Agar sen shu ishni qilsang seni o'ldiraman va shunga o'xshash so'zlarni ishlatsak bola bilmagan holatda ayb ish qilib qo'ysa o'z joniga qasd qilishi ham mumkin. Bola o'z joniga qasd qilmagan taqdirda ham ota onaning so'zlaridagi kuchi qochadi. Chunki bola o'yplashi mumkinki yana qilsam gapirib urishib shu bilan esidan chiqadi deb. Xalqimzda bir maqol bor kaltak bilan et qotadi, gap bilan bet degan. Ha deb baqirish so'kishlar Bolani uchun oddiy holday bo'lib qolishi mumkin. Moddiy tomondan taminlasam, usti but, qorni to'q shuning o'zi to'g'ri tarbiya deb o'ylaydi bazi ota onalar. Aslida unday emas. Bolada muloqotga bo'lgan ehtiyoj qondirilmasa bola tashqaridan uni tinglaydigan inson izlashga harakat qiladi. Uydan uzoqlashish jarayoni shu tariqa boshlanadi. Bolalar uyga kelganda ko'chada bo'lgan vaqeа hodisalarni hursandchilik yoki qayg'usini aytayotgan mavzuda suxbatdosh bo'lib fikr almashishi maqsadga muvofiq. Farzandning fikrlarini hurmat qilish avvalombor ulaning o'zlarini hurmat qilish kerak. Bu esa xo'jako'rsinga emas chin manoda bo'lishi lozim. Bolalar har doim ayniqsa balog'at yoshiba yetganda kattalar unga qulq solishini hurmat qilishini istaydi. Farzandingiz bo'lgan narsalarni sizdan yashirishi emas, aksincha, sizdan maslahat olishi va birgalikda yechim izlashi lozim. Shuning uchun farzandingizning qilgan xatosini takror takror aytib yuziga solib, sizga aytganidan pushaymon holatiga olib kelib bezdirmang. Siz qoniqarli ota ona bo'lyapsizmi yo'qmi bularni bolalarning o'zidan bilib olsak bo'ladi. Buning uchun sizdan nima istashiga qiziqish kerak. Masalan "senga qanday muomila qilishimni hohlaysan,, "seningcha yaxshi ota ona qanday bo'ladi,, kabi savollar berish



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th June, 2025

mymkin. Bola bu savollarga javob bermasa, uni tinglamaysiz ekan. U fikrini bildirishdan qo’rqib qolgan. U bilan ko’proq suxbatlashish lozim. Biroq yoshligidan tinglamay katta bo’lib suxbatlashishga urinish xato. Chunki bolaning yoniga u oshib o’tolmaydigan to’siqni qo’yib bo’lgansiz. Sizga bo’lgan ishonchi yo’qligidan darak beradi. Bazi ota onalar farzandlari o’rtasida qilmaydi. Yani birini biridan ustun ko’rib, biriga kamroq e’tibor beradi. Bu holat bolaning etibor talab qilishini oshirib har xil axmoqona harakatlar qilishiga ham olib keladi. Qiz va o’gil farzan o’rtasida bu holat bo’lsa qiz bola aka yoki ukasiga nisbatan adovat paydo qilishi mumkin. Bu mavzu haqida dinimizda ham Rasululloh sollohu alayhi vasallam: “Farzandlaringiz o’rtasidaadolat qilish majburyatingiz bor,, deganlar. Lekin o’g’il bola va qiz bola o’rtasidaadolat qilish degani barcha ishlarda o’g’il bolaga qanday muomila qilinsa qiz bolaga ham shunday muomila qilish kerak degani emas. Chunki qiz bola tabiatan o’g’il boladan ojiza. Shuni ham e’tiborda tutishimiz kerak. Farzandga o’zaro hurmat o’rgatilishi kerak. Buning uchun ota ona farzand yonida bir biriga nisbatan iliq muomilada bo’lishi juda muhim. Bu bola tarbiyasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Bazi jihatlari bunga asos bo’ladi:

1. O’zoro hurmat. Bolalar ota onasining o’zoro munosabatidan insonlar bilan qanday munosabatda bo’lishni o’rganadi. Kichik kelishmovchilik bo’lsa ham farzandning yonida baqirib chaqirishdan tiyilish kerak,
2. Mehr va e’tibor ko’rsatish. Ota ona bir biriga mehrli so’zlar aytishi, birga kulishi, hush muomilalik bolaga havfsiz va iliq muhit beradi. Bu bilan bola muhabbat ishonch, oila nima ekanligini o’rganadi.
3. O’zoro yordam va hamkorlik uy ishlarida ko’maklashish, birga vaqt o’tkazish bolaga g’amxo’rlikni masulyatni o’rgatadi.

Xulosa qism

Farzand tarbiyasida ota onaning o’zora munosabati katta ahamyatga ega. Farzand oldida hurmatli mehribon, sabrli va hamkorlikga asoslangan muhit yaratish uning ruhiy holati sog’lom bo’lishi va ijtimoiy ko’nikmalari shakillanishida mihim ro’l o’ynaydi. Ota ona o’zaro baxs munozaralarni odibli tarzda olib boorish, bir birini qadrlashi, bir ovozda tarbiya masalasida harakat qilishi bola ongida ishonchli barqaror va mehrga boy oilani shakillantiradi. Zero farzand ota onada ko’rganini ask



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th June, 2025

ettiradi. Qush uyasida ko'rganini qiladi degan maqolga nazar solsak bejizga emas sababi bola uyida ko'rgan narsani ko'chaga olib chiqadi. O'zingizni kimligingizni bilmoqchi bo'lsangiz farzandingizga nazar soling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'iyosiddin yusuf "Tarbiya-chi,, kitobi 2024-yil
2. "Qobilyatsiz bolalar bo'lmaydi, qobilyatsiz ota onalar bor,, misbah nashriyoti 2023-yil
3. Hasan Shamsiy Posho "Yosh qizga nasihat,, kitobi 2023-2024-yillar
4. Adem Gunesh " bola tarbiyasida to'g'ri ko'ringan xatolar,, kitobi 2023-yil